

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IRODAVIY XUSUSIYATLAR VA SHAKLLANTIRISH OMILLARI

*Mamlakatxon Rustambekova*  
*Andijon davlat universiteti o'qituvchisi.*  
*Chirmasheva Nilufar*  
*Andijon davlat universiteti talabasi*

### ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda irodaviy xususiyatlarni va unga ta'sir etuvchi omillar asoslab berilgan. Shuningdek, maktabgacha bolalarda xarakter, harakatchanlik va taqlidchanlik kabi xususiyatlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha yosh, iroda, o'jarlik, taqlidchanlik, faollik, irodaviy xususiyatlar.

### VOCATIONAL CHARACTERISTICS AND FACTORS OF THEIR FORMATION IN PRESCHOOL CHILDREN

*Mamlakatxon Rustambekova*  
*Teacher of Andijan State*  
*Chirmasheva Nilufar*  
*Student of Andijan State University*  
*University*

### ABSTRACT

In the article, the will characteristics of preschool children and the factors affecting it are substantiated. Also, features such as character, mobility and imitability in preschool children are highlighted.

**Keywords:** preschool age, will, stubbornness, imitability, activity, volitional characteristics.

### Kirish

Bu davr bola hayotining eng muhim mas'ulyatli davridir. Chunki bola bog'cha davrida, shu davrda beriladigan ta'lim tarbiya ta'sirida shakllanadi. (Yosh novdani qayoqqa eksang shu yoqqa egiladi).

• Bu davrda tafakkur va nutqi yetarli darajada rivojlangan bo'lishi (tafakkurda abstrakt tafakkur elementlari nutqda, geometrik qurilish, to'g'ri talaffuz qilish, bog'lanishli nutq, 5000 ga yaqin so'z boyligi....)

• Ixtiyoriy diqqat, idrok, xotira, hayol jarayonlarining rivojlangan bo'lishi

- Bola o'z-o'zini tuta bilishi, sabr -toqatlilik, qiyinchiliklarga bardosh berishi
- Bolada maktabda o'qish xohishlarini, o'qish faoliyati kitoblarini shakllangan bo'lishi
- Bola o'zi birinchi mas'uliyatni his qilishi, ko'cha va maktab qoidalariga rioya qilish ko'nikmasi shakllangan bo'lishi
- O'z o'ziga, o'rtoqlariga , o'qish va mehnatga ijobiy, ongli munosabatda shakllangan bo'lishidan iborat.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterining asoslari yuzaga keladi.

Bog'chadagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin, bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatini bir xilligi va surunkaligidan toliqadi.

Bog'cha yoshdagi bolalar nutqini birmuncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanligi tufayli ulardan o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyojlari tug'iladi.

Bolalarning o'yin faoliyati ularni o'rganish uchun juda qulay vosita. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalarda idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlari rivojlantiradilar.

N.M . Shgalovanov, D.B Elkonin va boshqalarning fikricha, bolaning uch yoshgacha o'sishida erishgan yutuqlari uning xulq-atvorini, bilish jarayonlarini sifati jihatidan ancha o'zgartirib yuboradi.

Xarakatli va rolli o'yinlar jarayonida amaliy xatti-harakat bilan uzviy bog'liq holda bola shaxsida insoniy hislatlar tarkib topa boradi. O'yin faoliyati va turli o'yinlar bolada irodaviy sifatlarni takomillashtiradi, xis tuyg'ularini boshqarishda yetakchi faoliyat vazifasini o'taydi.

Mazkur davrda nutq mazmunliroq nutq faoliyati esa grammatik, marfologik va sintaksistik nuqtai nazardan to'g'ri tuzilishga ega bo'la boradi, bolaning bu boradagi faolligi misilsiz darajada o'zgaradi.

Bu davrda o'jarlik va qaysarliklar kabi xususiyatlar vujudga kelishi mumkin:.N.A. Menchinskiya, V.S. Muxinaning oqilona mulohazalariga ko'ra, bolalardagi injiqliklarning bosh omillari atrofdagi odamlarning ular shaxsiga adolatsiz, noto'g'ri mensimay munosabatda bo'lishidan iboratdir. Bizningcha, o'zini tan olishga intilish bunga sababdir.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rgangan A.N.Golubevaning fikricha, noqulay sharoitda bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish unda o'jarlikni paydo qiladi. Shuningdek, bu yoshdagi o'jarligi doimiy bo'lmaydi, masalan, o'z tengdoshlariga nisbatan o'jarlik qilish axyon-axyondagina ro'y beradi. Ular asosan,

katta yoshdagi odamlar shunda ham muayyan tarbiyachiga yoki oila a'zolarining birortasiga o'jarlik qiladi.

A.N.Golubeva bolalardagi o'jarlik barqaror emasligi sababli uning oldini olish mumkinliginining uqtiradi. A.P.Larinnig tadqiqotida esa noqulay va nomaqbul tarbiyaviy shart-sharoitlarda qaysarlik juda erta, xatto 3 yoshda ham paydo bo'lishini ifodalagan.

Bu davrda bolalarda bilish jarayonlari takomillashadi.

Bog'cha yoshdagi bolalarning diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bog'cha yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatni o'sib borishi uchun o'yin juda katta ahamiyatga ega.

Bu yoshda bolaning xotirasi yangi faoliyatlarni va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari asosida takomillashib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning xotirasi ko'rgazmali, obrazli bo'lishi bilan xarakterlidir. Bolada ko'proq ixtiyorsiz yerda qoldirish va ixtiyorsiz yerga tushirish ustunlik qiladi.

Bog'cha yoshdagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshdagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshdagi bolalarda turmush tajribasini nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo'lishi, uchinchidan, esa bu yoshdagi bolalarning erkin va mustaqil harakat qilsin imkoniga ega bo'lishi.

Bolaning hayotining ushbu davri uchun u o'zi hal qiladigan rivojlanish vazifalari nuqtai nazaridan nisbatan mustaqil ravishda uning yashash joyidan bu bolalar bog'chasi, maktab yoki oila kabilarda yuz beradi.

Bu davrda sezuvchanlik ortadi. Sezuvchanlik-bolaning sezgirligini oshirish, o'z-o'zini anglash mazmuni boshqa odamlarning har qanday ta'siriga juda zaif qiladi. Himoyalangan muhit uning uchun manba bo'lishi bejiz emas.

Vekollning aytishicha, bolalikning o'rtasida notanish odamning baholovchi so'zlari kuchli hissiy ta'sirga aylanadi. Menimcha, kattalar ko'pincha uning ahamiyatini e'tiborsiz qoldiradilar, ammo bu "Boshqa shaxs" tushunchasini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan tajriba.

Bolalarning yolg'on gapirishlari sabablari orasida P.Ekman quyidagilarni aniqlaydi. Jazodan qochish, boshqa yo'l bilan erisha olmaydigan narsani olish istagi, do'stini muammolardan himoya qilish, e'tirof va qiziqishni qozonish kabilarni o'rganadilar.

### **Xulosa**

Shunday qilib, bolaning irodaviy xususiyatlarini shakillanishiga uning yaqinlari va bog'chadagi muhit muhim ro'l o'ynaydi. Uning maktabga tayyorgarlik jarayonida axloqiy va irodaviy xususiyatlari rivojlanib boradi. Shu davr mobaynida bola maktab uchun o'zining bilish jarayonlari yanada takomillashtiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Дифференциал психология
2. Э. Гозиев - Онтогенез психологияси 2010
3. Г.С. Абрамова - Возрастная психология 1998
4. Ш.А. Дўстмухамедова, З.Т. Нишонова - Ёш даврлари ва педагогик психология 2013
5. З.Т.Нишонова, Н.Г. Комилова, Д.У. Абдуллаева, М.Х. Холназарова - Ривожланиш психологияси. Педагогик психология